| | |
|---|---|
| | 13. Валихўжаев Б. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (Энг қадимги даврлардан XVI аср охиригача). Дарслик. – Тошкент, 2006.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3. http://forum.ziyouz.com/index.php?board=107.0<br>**4.** http://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar |
| **7.** | O‘quv dasturi “Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “27” avgust dagi “1” – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil “28” avgust dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori, |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Rustamiy S. – O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari doktori<br>Jo‘rayev J. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva
________
2021 yil “28” avgust

# MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI

## FANNING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 | – Tillar |
| **Mutaxassislik:** | 70230102 | –Mumtoz filologiya (sharq tillari bo‘yicha) |

Toshkent – 2021

| | |
|---|---|
| | • guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Rustamiy S. Mumtoz filologiyaning nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2013.<br>2. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006.<br>3. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашуносик ва матншуносликнинг назарий масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2012.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>5. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2004.<br>6. Рустамий С. "Девону луғоти-т-турк"даги лингвистик атамалар. Монография. – Тошкент, 2006.<br>7. Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2004.<br>8. Содиқов Қ. "Муҳокамату-л-луғатайн"ни ўқиб ўрганиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011.<br>9. Содиқов Қ. Тарихий лексикография. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013.<br>10. Тухлиев Б. Вопросы поэтики "Кутадгу билиг" Юсуфа Хас Хаджиба. Учебное пособие. – Ташкент, 2004.<br>11. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва маромлари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.<br>12. Содиқов Қ. Туркий тил тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. |

5. "Devonu lug'oti-t-turk"ning adabiyotshunoslikda tutgan o'rni.
6. Alisher Navoyiy "Layli va Majnun" dostoni badiiyatining o'ziga xosligi.
7. Alisher Navoyiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida ko'rilgan tilshunoslikka oid qarashlar.
8. Alisher Navoyiyning "Mezonu-l-avzon" asarining sharhi.
9. Boburning "Muxtasar" asarining sharhi.
10. "Fununu-l-balog'a"ning mazmuni va tuzilishi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mumtoz matnlarni o'rganishning nazariy asoslari.
2. Mumtoz matnlarni lingvistik jihatdan o'rganish.
3. Mumtoz matnlarni badiiy-g'oyaviy jihatdan o'rganish.
4. Mumtoz matnlarni tekstologik jihatdan o'rganish.
5. Mumtoz matnlar lug'atini tuzish masalasi.
6. Mumtoz matnni ilmiy transkripsiyaga o'girish.
7. Mumtoz matnni til tarixi nuqtai nazaridan o'rganish.
8. Mumtoz matnni ilmiy tavsiflash.
9. Mumtoz matn interpritatsiyasi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni tadqiqot qilish tavsiya etiladi.

3. **V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**

**Talaba bilishi kerak:**

– mumtoz asarlarni o'rganish bo'yicha sharqshunoslikda bor bo'lgan turli ko'zqarashlar, ilmiy tortishuvlar ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***

– mumtoz matnlar tili va badiiy xususiyatlarining til va adabiyot tarixida tutgan o'rni;

– yozma yodgorliklarni o'rganishning nazariy masalalarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

– yozma yodgorliklar, klassik asarlar bo'yicha filologik tadqiqotlar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

– klassik matnlarni o'qib, ulardan o'z sohasi uchun kerakli material to'play olishi;

– klassik turkiy matnlardagi, adabiy asarlardagi ilg'or g'oyalarni, kishilik yuksalishiga xizmat qiluvchi fikrlarni uqib, ularni to'g'ri talqin qila olish, ular bo'yicha ilmiy tadqiqot yarata olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-studylar;
- seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);



| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS -Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| MFNM104 | 2021-2022 | 1 | 4 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta'lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | O'zbek | | 4 | |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| **Mutaxassislikning nazariy masalalari** | 60 | | 60 | 120 |

1.

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda mumtoz filologiyaning ilmiy-nazariy masalalari, sharqshunoslikda klassik matnlarni o'rganish va ularni talqin etish bilan bog'liq nazariy masalalar haqida bilim, ko'nikma va malakani shakllantirish.

Fanning vazifasi – magistratura talabalariga mumtoz matnlarni, adabiy asarlarni o'rganish, ularni talqin qilish, klassik asarlarni o'rganish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan jumboqlar va ularning ilmiy yechimini topishga o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanining mazmuni, predmeti va metodi**

Kirish. "mumtoz filologiya" tushunchasi va uning nazariy asoslanishi. "Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanining maqsad va vazifalari. Fanning o'rganish doirasi va yo'nalishlari. Uning boshqa fanlar bilan aloqasi.

**2-mavzu. Tekstologiya va uning tarmoqlari**

Tekstologiya va uning tarmoqlari. Matn tuzish an'analarining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Matnni manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish.

**3-mavzu. Mumtoz matnlarni nashrga tayyorlashning ilmiy prinsiplari**

Mumtoz matnlarni nashrga tayyorlashning ilmiy prinsiplari. Asarni asl manbadan o'qish va uni hozirgi yozuvlarga o'girish. Transkripsiya va ilmiy transliteratsiya. Ularning tanlanish prinsiplari. Ilmiy-tanqidiy, yig'ma matnlar tuzish yo'llari. Ilmiy nashrlarda matn tilini saqlash. Ommaviy nashr masalasi.

**4-mavzu. Matnshunoslikning yordamchi sohalari**

Sfragistika. Epigrafika. Numizmatika. Paleografiya. Klassik matnlarni

o‘rganishda bu sohalarning tutgan o‘rni.

**5-mavzu. Matnni tavsiflash usullari**

Klassik matnni tavsiflash usullari. Qo‘lyozmalarni birlamchi va monografik planda tavsiflash.

**6-mavzu. Mumtoz matnlarni o‘rganish metodologiyasi**

Mumtoz asarlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish. Matn tili va uning adabiy til tarixini o‘rganishdagi o‘rni. Matn tilini tarixiy-qiyosiy aspektda o‘rganish. Matn tilini o‘rganishning nazariy masalalari. Tilshunoslikda va sharqshunoslikda shakllangan ilg‘or metod va usullar. Ulardan foydalanishning optimal yo‘li.

**7-mavzu. Asar qo‘lyozma nusxalarini qiyosiy o‘rganish**

Nusxalar o‘rtasida yuzaga kelgan tekstologik farqlarni, matn tili bilan bog‘liq yuzaga kelgan o‘zgarishlarni ko‘lyozma ko‘chirilgan davr tili nuqtai nazaridan tahlil qilish.

**8-mavzu. Asarning til xususiyatlari**

Asarning til xususiyatlari, uning uslubiy o‘zgachaliklarini belgilovchi birliklarni aniqlay bilish va ularni tahlil etish. Asaring fonetik xususiyatlari bilan bog‘liq masalalar. Asarning leksik-semantik xususiyati bilan bog‘liq masalalar va ularning yechimi. Asarning morfologik xususiyati bilan bog‘liq masalalar va ularning yechimi. Asarning sintaktik-stilistik xususiyati bilan bog‘liq masalalar va ularning yechimi. Klassik matn tili va hozirgi jonli tillar munosabati masalasi.

**9-mavzu. Badiiy matn tushunchasi. Klassik tur va janrlar**

Matn poetikasi. Poetikaning nazariy masalalari. Klassik tur va janrlar. Klassik janrlarning o‘tmishda qo‘llanilgan atamalari. O‘tmish adabiyotshunosligi. Uning metod va yondashuvlari.

**10-mavzu. Hozirgi adabiyotshunoslikda mumtoz matnlarni o‘rganish masalalari**

Hozirgi adabiyotshunoslik, uning metod va yo‘nalishlari. Hozirgi zamon adabiyotshunosligida klassik matnlarni o‘rganish bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nazariy masalalar.

**11-mavzu. Adabiyot tarixini davrlashtirish masalasi**

O‘tmishda yaratilgan badiiy asarlarni tarixiy davrlar nuqtai nazaridan o‘rganish. Adabiyot tarixini davrlashtirish masalasi.

**12-mavzu. Xalq og‘zaki ijodi namunalari**

Xalq og‘zaki ijodining eng eski namunalari, ularning manbalari. Xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning nazariy masalalari.

**13-mavzu. Yozma adabiyot va uning tarixiy taraqqiyoti**

Yozma adabiyot va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq masalalar. Yozma adabiyotning klassik bosqichi. Klassik adabiyot tushunchasi. Uning



muhim belgilari.

**14-mavzu. Mumtoz adabiyot manbalarini tadqiq etish usullari**

Mumtoz adabiyotni ilk manbalar, asar qo‘lyozmalari, tarixiy asarlar, tazkiralar, o‘sha davrlarda yashab o‘tgan olim va shoirlarning ma’lumotlari asosida o‘rganish.

**15-mavzu. Mumtoz matnlarni janr xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish. An’anaviylik. Tazkirachilik an’analari**

Devon tuzish an’analari. Sharq adabiyotida xamsachilik an’analari. Falsafiy dostonlar. Qahramonlik dostonlari. Klassik adabiyotda an’anaviylik va uning nazariy masalalari. Matnlarning an’anaviy yaratilish tarixi. Adabiyot tarixida tazkirachilik an’analari. Tarixiy-badiiy asarlar. Epistolyar janr va uning badiiy xususiyatlari.

**III. Amaliy mashg’ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mumtoz matnlarni o‘rganishning nazariy asoslari.
2. Mumtoz matnlarni lingvistik jihatdan o‘rganish.
3. Mumtoz matnlarni badiiy-g‘oyaviy jihatdan o‘rganish.
4. Mumtoz matnlarni tekstologik jihatdan o‘rganish.
5. Mumtoz matnlar lug‘atini tuzish masalasi.
6. Mumtoz matnni ilmiy transkripsiyaga o‘girish.
7. Mumtoz matnni til tarixi nuqtai nazaridan o‘rganish.
8. Mumtoz matnni ilmiy tavsiflash.
9. Mumtoz matn interpritatsiyasi

Amaliy mashg’ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o’qituvchi tomonidan o’tkazilishi zarur. Mashg’ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o’tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo’llanilishi maqsadga muvofiq.

***Fan bo‘yicha kurs ishi.*** O‘quv rejasiga ko‘ra “Mutaxassislikning nazariy masalalari” fani bo‘yicha kurs ishi yozadilar. Mavzular keng qamrovli bo‘lib, talabalarning mutaxassislikning nazariy masalalaridan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularga magistrlik dissertatsiyalari bo‘yicha bilimlarini umumlashtirishga yordam beradi. Mavzular o‘quv yilining boshida kafedra majlisida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

**Kurs ishlarining namunaviy mavzulari:**

1. Mumtoz asarlarning badiiy xususiyatlari (Navoiy ijodi misolida)
2. Mumtoz asarlarning badiiy xususiyatlari (Bobur ijodi asosida)
3. Alisher Navoyiy “Farhod va Shirin” dostonining ayrim badiiy xususiyatlari.
4. “Devonu lug‘oti-t-turk” asarining tilshunoslikda tutgan o‘rni.